



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **SAMARQAND MAHALLALARINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI**

**Azimjon Ergashev Xasanovich**

Oriental universiteti, Samarqand kampusi, 2-bosqich magistranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Samarqand shahrining mahallalari arxiv materiallari asosida o'rganib chiqilgan bo'lib, unda Samarqand shahrining Abramov tomonidan o'rganilishi va mahallalarni xususiyatlariga qarab guruhlariga bo'lib chiqqanlarni batafsil yoritilgan. Shuningdek, aholining madaniyati, urf-odati an'analari va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar** : Samarqand mahalla, etnik tarkib, mikrotoponimika, qal'a, yahudiylar, urf-odat, qabriston, sinagoga, madaniyat va hokazo.

## **ОСВЕЩЕНИЕ САМАРКАНДСКИХ МАХАЛЛЕЙ В АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТАХ**

**Азимжон Эргашев Хасанович**

Университет Oriental, Самаркандский кампус, магистрант 2 курса

### **Аннотация**

В данной статье на основе архивных материалов исследуются махалли города Самарканда. Подробно освещается изучение Самарканда Абрамовым, а также классификация махаллей по их характерным особенностям. Кроме того, приводятся сведения о культуре населения, обычаях и традициях, а также о социально-экономической жизни города.

**Ключевые слова**: самаркандские махалли, этнический состав, микропонимика, крепость, евреи, обычаи, кладбище, синагога, культура.

## **REPRESENTATION OF SAMARKAND MAHALLAS IN ARCHIVAL DOCUMENTS**

**Azimjon Ergashev Khasanovich**

Oriental University, Samarkand Campus, 2nd-year Master's Student

### **Abstract**

This article examines the mahallas of Samarkand city on the basis of archival materials. It highlights in detail Abramov's study of Samarkand and the classification of mahallas according to their specific characteristics. The article also provides information about the culture of the population, customs and traditions, as well as the socio-economic life of the city.

**Keywords**: Samarkand mahallas, ethnic composition, microtoponymy, fortress, Jews, customs, cemetery, synagogue, culture.

Samarqand shahri aholisi haqida so'z borganda, shaharning tarkibiy qismlari bo'lgan mahallalar tavsifini berish o'rinlidir. Zero, shahar aholisi o'z mashg'ulotlari va turmush tarziga qarab alohida-alohida guzarlarda istiqomat qilgan. Samarqand shahri qiyofasi doimo yangi tashkil etilgan mahallalar yoki mavzelnarning kengayishi hisobiga o'zgarib borgan. Shahar guzarlari ijtimoiy ahamiyatdan tashqari ma'muriy ahamiyatga ham ega bo'lgan.

Samarqand guzarlari to'g'risida tadqiqot olib borgan M.M. Abramov shaharni ma'muriy

jihatdan to'rtta yirik dahaga bo'lgan [1]:

1. Payqaboq;
2. Qalandarxona;
3. Xo'ja Ahror;
4. So'zangaron.

O'z navbatida, Payqaboq 22 ta, Qalandarxona 20 ta, Xo'ja Ahror 22 ta, So'zangaron esa 27 ta guzardan (kvartaldan) iborat bo'lgan [2].

Shahar mikrotoponimikasini guzarlarning xususiy atlaridan kelib chiqib, yetti guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni shahar guzarlari aholisining kasb-koriga qarab nomlangan mahallalar tashkil etadi. Zargaron mahallasida tilla buyumlar yasovchi ustalar, So'zangaronida igna yasovchi ustalar, Charmgaronda terichilik va teri mahsulotlari ishlab chiqaruvchi ustalar, Xarrotunda yog'och ustalari, Kulolonda kulol ustalar, Zingaronda egar-jabduq va ot abzali yasovchi ustalar, Sharbatdorda esa turli shirin ichimliklar tayyorlovchilar istiqomat qilishgan.

Ikkinchi guruh guzarlari boshqa shaharlardan ko'chib kelgan aholiga qarab nomlangan, ya'ni aholi qaysi hududdan kelgan bo'lsa, o'sha nom bilan atalgan. Jumladan, Toshkandiy, Xo'jandiy, Urgutiy, Zominiy, Yominiy, Shahrisabziy, Urmitaniy, Qashqariy, Panjakentiy kabi guzarlar bo'lgan.

Uchinchi guruh guzarlarining nomlari shahar me'moriy yodgorliklari nomlari bilan bog'liq bo'lgan. Bunga Ruhobod, Go'ri Amir, Oqsaroy, Namozgoh, Ko'k machit, Xonaqo, Madrasai Safed guzarlarini kiritish mumkin.

To'rtinchi guruhga Samarqand shahri topografiyasi bilan bog'liq guzarlar kiradi. Bular: Labig'or, Chaqar, Toli Regak, Baland ko'prik, Bog'i baland, Kabolai yakum, Kabolai duyum, Puli Mirzo, Gilburch va boshqalardir.

Beshinchi guruhga shahar tabiati bilan bog'liq guzar nomlarini kiritish mumkin. Ular Kavazzor, Lolazor kabi mahallalardir.

Oltinchi guruhga Navadon, Obimashhad, Doniyorbek, Kulobod, Qo'shhovuz kabi shahardagi suv inshootlari, sun'iy ariqlar va suv manbalari nomlaridan kelib chiqqan guzarlar kiradi.

Yettinchi guruhga olimlarning nomlari berilgan guzarlar, jumladan, Faqih Abullays, Maxdumi Xorazmiy, Dahbediy va boshqalar kiradi.

Guzarlarni aholining umumiy yig'ilishlarida saylanadigan oqsoqollar boshqargan. Har bir mahallaning markazi bo'lib, u yerda masjid va choyxona bo'lgan. Ushbu markazlarda savdo-ishlab chiqarish ustaxonalari, do'konlar va uncha katta bo'lmagan bozorlar ham mavjud bo'lgan [3]. Rossiya istilosidan keyin ham eski shahardagi guzarlar shaharning hududiy bo'linishi doirasida o'zining mavqei va o'rniga ega bo'lsada, huquqiy jihatdan davlat tuzilishi tizimiga kirmas edi. Shunday bo'lsa-da, guzarlarning ijtimoiy jihatdan boshqarilishi, ularda yashovchilarga nisbatan tartib-intizomni ta'minlash borasida yozilmagan qonunlar mavjud bo'lganini eslatish joiz. Rasmiy-huquqiy masalalar qozi va muftiylar muhokamasi asosida qonun doirasida bajarilgan. Qozi va muftiylar bir necha guzarda shahar hokimi va keyinchalik imperiya hukumati farmoni bilan tayinlangan [4].

XIX asr o'rtalarida Samarqand baland qal'a devorlari bilan o'ralgan bo'lib, shaharning oltita darvozasi bo'lgan (qarang: 1-ilova):

1. shaharning janubi-sharqida ignachi kosiblar yashovchi mahalla nomi bilan ataluvchi So'zangaron darvozasi;
2. shaharning sharqidagi Qalandarxona darvozasi;
3. shaharning shimoli-sharqidagi Darvozai Shoh yoki Shohizinda darvozasi;
4. shaharning janubi-g'arbiy tomonidagi Payqaboq darvozasi;
5. shaharning g'arbida joylashgan Darvozai Buxoro;
6. shaharning janubidagi Xo'ja Ahror darvozasi [5].

Darvozalar dushman hujumidan shaharni muhofaza qilgan. Imperiya hukumatining

kuchli qurol-aslahalari mavjud bo'lgani uchun bu darvozalarga ehtiyoj qolmadi va rus harbiylari bu darvozalarni olib tashlab, shahar qal'asini buzib yubordi.

Shahar mahallalarida chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kechgan. Shaharda aslzodalar bilan bir qatorda oddiy xalq qatlamlariga mansub kishilar ham yashagan.

Shahar aholisining etnik tarkibi nihoyatda xilma-xil bo'lgan. O'zbeklar va tojiklar bilan birgalikda eroniylar, arablar, afg'onlar, hindlar, lo'lilar, yahudiylar kabi kam sonli millat vakillari ham istiqomat qilgan. Ularning XIX asr 60-yillarida son jihatdan aholi tarkibidagi ulushi tarixiy ma'lumotlarda turlicha uchraydi. Ayrim etnik birliklarning bu shaharga qay tarzda kelganliklari, ularning kundalik yumushlari to'g'risida ham ayrim ma'lumotlar mavjud. Yahudiylar haqida V.V. Radlov "ular 100–150 yil oldin Erondan avval Buxoroga, keyin Samarqandga ko'chib kelishgan", deb ma'lumot beradi [6]. A.F. Fayziyevning keltirishicha, yahudiylar alohida mavzeda istiqomat qilishgan. 1843-yili amir Nasrullo Samarqand shahrida, sharqiy darvoza yaqinida, Chokardiza qabristoni yonida o'n ming kumush tangaga alohida guzar tashkil qilishlari uchun ularga 11 tanob yerni sotganligi haqida ma'lumot keltiradi [7]. Ular asosan etikdo'zlik, zardo'zlik va hunarmandchilikning boshqa turlari bilan shug'ullanishgan.

XIX asr ikkinchi yarmida Samarqand shahri aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Imperiya boshqaruv tizimining o'rnatilishi yangi etnik qatlamni yuzaga keltirdi. Siyosiy kuch sifatida Rossiya imperiyasi tarkibidagi turli millat vakillaridan iborat bo'lgan soha mutaxassislarining ko'chirib keltirilishi ham bunga ta'sir ko'rsatdi. D.L. Ivanovning keltirishicha, Samarqandda yashovchi yahudiylar amirlik davrida ba'zi huquqlardan mahrum bo'lib, ular shaharda o'zlari uchun sinagoga (ibodatxona) qurish, otda yurish, musulmonlar kiyimlarini kiyish, etik kiyish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega emas edilar. Yahudiylar uchun bozor orqasida alohida mavze ajratilib, barcha yahudiylar o'sha hududda istiqomat qilgan. Shu tariqa "jugut guzari" shakllangan. Samarqand imperiya qo'shinlari tomonidan egallangach, mahalliy aholi va yahudiylar imperiya uchun bir xil — qaram aholi maqomiga ega bo'ldilar. Yahudiylarga nisbatan amirlik davrida joriy etilgan taqiqlar bekor qilingan. Natijada yahudiylar imperiyaning o'lkadagi hokimiyatiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'la boshladilar. Yahudiylar ruslar bilan yaqinlashib, tezda rus tilini o'zlashtira boshlashdi [8].

Yahudiylarning siyosiy dunyoqarashi va ijtimoiy hayotdagi faolligi ularning yangi tuzumga ko'nikishini tezlashtirdi. Yahudiylar mahalliy aholi orasida uddaburonligi bilan ajralib turgan, ularning savdogarlari boshqa savdogarlarga nisbatan raqobatbardosh bo'lgan, yangilikka birinchilardan bo'lib qo'l urgan va rus ta'lim muassasalarida o'qiy boshlagan. Bundan tashqari, yahudiylar qo'shni xonliklarda bo'layotgan siyosiy jarayonlarni tezda anglab, bu haqda ruslarni ogohlantirib turganlar [9].

Samarqand atrofida o'zbeklarning qang'li, nayman, qo'ng'iroq, qipchoq, xitoy, qiyot, chig'atoy, durmon, ming, qirq, yuz, qoraqalpoq, saroy, qirg'iz, turk, mang'it, baxayrin kabi urug'lari istiqomat qilgan [10].

Samarqandda etnik birlik sifatida hindlar ham istiqomat qilishgan. Ular Samarqandga savdo maqsadida kelishgan va shu yerda o'rnatilib qolganlar. Ular asosan sudxo'rlik, hind mahsulotlarini sotish va shunga o'xshash faoliyat bilan shug'ullanishgan.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand XIX asr o'rtalarida nafaqat Buxoro amirligining, balki O'rta Osiyoning ham yirik savdo va madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, bir tomondan, ijtimoiy hayotning murakkablashuviga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, madaniyatning xilma-xilligi va rang-barangligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Samarqand shahrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda turli etnik guruhlarining yashaganligi va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli bilan bog'liqdir. Samarqandning "eski shahar" qismidagi hayot ma'muriy jihatdan katta o'zgarishlarga duch kelmagan. Avvalgidek, shahar dahalarga, dahalar esa guzarlarga bo'lingan holda an'anaviy idora etish usuli bilan boshqarilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abramov M. M. Guzari Samarkanda. – Tashkent: Uzbekistan, 1989. – S. 4.
2. Samarqand viloyati davlat arxivi.1843-fond, 1-ro‘yxat, 8-yig‘ma jild, 27–29-varaqlar.
3. Abramov M. M. Guzari Samarkanda. – Tashkent: Uzbekistan, 1989. – S. 5.
4. Samarqand viloyati davlat arxivi. 1843-fond, 1-ro‘yxat, 8-yig‘ma jild, 31–32-varaqlar.
5. Samarqand viloyati davlat arxivi. 1843-fond, 1-ro‘yxat, 8-yig‘ma jild, 33-varaq.
6. Fayziyev A. F. Istoriya Samarkanda v pervoy polovine XIX veka: uchebnoye posobiye. – Samarkand, 1992. – S. 8.
7. Samarqand viloyati davlat arxivi. 1843-fond, 1-ro‘yxat, 8-yig‘ma jild, 57-varaq.
8. Samarqand viloyati davlat arxivi. 1843-fond, 1-ro‘yxat, 8-yig‘ma jild, 37–39-varaqlar.
9. Abramov M. M. Guzari Samarkanda. – Tashkent: Uzbekistan, 1989. – S. 8.